

ULKI OGAHLARNING OGAHIDUR

Yorqinoy Eshchanova

UrDU akademik litseyi oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Muhammad Rizo Ogahiyning ijodi va so'z qo'llash mahorati tahlil qilinadi.*

Annotatsiya: *In this article, it is analyzed that, one of the best poet of Uzbek literature Nuhammad Rizo Ogahiy's creativity and word using skills*

Kalit so'zlar: *Ogahiy, g'azal, qiyos usuli, tatabbu', tamsil, adabiy ta'sir, badiiy mahorat, antroponim.*

Key words: *Ogahiy, ghazal, comparative method, tatabbu', tamsil, literary influence, artistic skill, anthroponym.*

Har tomonlama rivojlanib borayotgan mamlakatimizda o'tmishda yashab o'tgan yetuk allomalar, shoir va ijodkorlar hayoti va ijoini o'rganishga e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Sababi, yosh avlodni o'z vataniga sodiq, ajdodlar merosiga hurmat, an'analarimizga muhabbat, insonparvarlik xislatlari ruhida tarbiyalashda buyuk siymolarimizning ijodi bebaho manbadir. Ayniqsa, Xorazm zaminida yetishib chiqqan ijodkorlar qatorida Ogahiy(1809-1874) nomini alohida hurmat bilan tilga olsa arziydi. Serqirra ijod sohibi bo'lgan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li - Ogahiy atoqli shoir, mohir tarjimon, tarixnavis olim va davlat arbobi sifatida o'zining qator asarlari bilan madaniyatimiz tarixining yuksalishiga, adabiyotshunosligimizni yangiliklar bilan boyitishga, insoniyat badiiy va ilmiy salohiyatining yuksalishiga munosib hissa qo'shdi. Uning ilmiy-ijodiy merosida 27 ta asar jamlangan bo'lib, adabiyotimizda asarlarining mazmun va ko'lami, badiiy va ilmiy ahamiyati bilan Navoiydan keyingi o'rinda e'tirof etiladi. Ogahiy ijodini o'rganish alohida tarixga ega. 1882, 1905- yillarda uning devoni litografiya usulida bosilgan, 1958-yilda S.Dolimov nashrga tayyorlagan devoni "Tanlangan asarlar" va 1960-yilda Sh.Sharafiddinov nashrga tayyorlagan devoni muhim manbalardir. 1961-yilda 4 tomlik "O'zbek adabiyoti" xrestomatiyasi va 5 tomlik "O'zbek she'riyati antologiyasi"da Ogahiy asarlari haqida ma'lumotlar berilgan. Akademik V. Zohidovning "Ogahiy" maqolasi, Q.Munirovning "Ogahiy. Ilmiy va adabiy faoliyati" nomli risolasi, S. Dolimov va R.Majidiylarning kandidatlik dissertatsiyalari mavjud. Shoir asarlarini o'rganishda F.Karimov, R.Majidiy, S.Dolimov, H.Komilov, H.Abdullayev, S.Ro'zimboyev kabi olimlarimizning xizmati katta. Bugungi kunda A.O'rozboyev, T.Matyoqubova, I.Ismoilov kabi olimlarimiz bu ishni davom ettirmoqdalar. Muhimi, shoir ijodini qo'lyozma nusxalardan xolis o'rganishga, ulardagi mazmun va g'oyalarni muallif e'tirofi nuqtayi nazaridan yoritib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, Muhammad Rahimxon II- Soniy (1844-1910) xonligi davrida Ogahiy rahbarligidagi Xiva adabiy maktabiga asos solindi. Bu maktabdan Tabibiy, Sul-toniy, Komil Xorazmiy, Bayoniy, Mirzo kabi ijodkorlar yetishib chiqib, o'z davri adabiyoti va san'ati rivojiga katta hissa qo'shdilar. Ular Ogahiy-ni ustoz deb bilib, uning ijodidan ilhom olib asarlar yozdilar.

Ogahiy - serqirra ijodkor. Uning tarixiy asarlari XIX asr Xorazm tarixini yoritishda muhim manbadir. Ogahiy sakkizta xonning hukmronligi davrida yashab ijtimoiy hayotda bo'layotgan tarixiy voqealarning bevosita guvohi va ishtirokchisi bo'lgan. Bular: Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulxon (1843-1845), Muhammadaminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855), Qutlug'murodxon (1855), Saidmuhammadxon (1856-1864), Muhammad Rahimxon II (1844-1910). Ogahiyning 5 ta tarixiy asari mavjud bo'lib, ularda qariyb yarim asrlik (1913-1873) Xorazm tarixi aniq fakt va dalillar bilan yoritib berilgan. Olloqulixon hukmronligi davrini tasvirlovchi "Riyoz ud-davla" (1844), Rahimqulixon saltanati tarixiga oid "Zubdat ut-tavorix" (1846), Muhammadaminxon hukronligi davriga doir "Jomeul voqeoti sul-toniy" (1857), Saidmuhammadxon saltanati tarixini aks ettirgan "Gulshani davlat" (1866), Muhammad Rahimxon – Feruz hukmronlik davrini tasvirlagan "Shohidi iqbol" (1872) asarlarida muallif XIX asr Xorazm xonligi davriga oid qimmatli tarixiy ma'lumotlarni beradi. Bular tarixiy asarlarga bo'lib qolmay, ularda Ogahiyning badiiy mahorati ham namoyon bo'ladi. Uning tarixiy asarlarida Xiva xonligining iqlimi, hududi, aholisi, urf-odat-lari, yer va suv resurslari, shuningdek, qardosh qozoq, qoraqalpoq va turkman xalqlarining etnik tarixi va yashash tarziga oid ma'lumotlar bilan birga shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham aks etgan. Bir so'z bilan aytganda, Ogahiy-ni qomusiy olim sifatida e'tirof etsa arziydi. Ayniqsa, Ogahiy asarlarida o'sha davr Xorazm shevasida fors va arab tiliga xos so'zlarni ishlatilganining guvohi bo'lamiz, bu so'zlarning ayrimlari hozir ham iste'molda bor bo'lsa, ayrimlari iste'moldan chiqib ketgan. Masalan, "qapog" so'zi xorazm shevasida "qopoq" shaklida ko'zni qoplab turuvchi a'zo ma'nosida, "to'ngmoq" so'zi sovqotmoq ma'nosida qo'llanadi. "Haz" so'zi rohat, lazzat ma'nosida hozir ham ishlatiladi. Ogahiy she'riyatida ishlatilgan "kaj" so'zi ham hozir egrilik, qiyshqlik ma'nosida foydalaniladi.

Dahrdin chek qo'lingni, qilg'uncha

Ostining daroz, aling ko'toh.

Misradagi "al" so'zi hozirda xorazm shevasida qo'l ma'nosida qo'llanib kelmoqda.

Ogahiy Xiva tarjima maktabining asoschilaridan biridir. Ogahiy tarjimalari bo'yicha ishlagan professor N.Komilov tadqiqotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxonning talabi bilan shoir Sa'diyning "Guliston" asarini forschadan o'zbekchaga tarjima qilgan. Bu asarni Sayfi Saroiy 1390-91- yillarda o'zbek tiliga o'g'irgan, Ogahiy 1862-63- yillarda, G'.G'ulom esa 1968- yilda tarjima qilgan.

“Guliston“ asari Ogahiy tarjimasida ifodali bayon etilgan. Ogahiy asar xotimasida: “Har she’nikim munosib va muvofiq yerlarda raqam qildim o‘z ta’bining zodiacidadur”, deb yozadi. Demak, u hikoyatlarni o‘z she’rlari bilan dalillagan. Shoirning 18 ta asarni tarjima qilgani haqida ma’lumotlar bor, ammo yetarli darajada o‘rganilmagan. Bundan tashqari Ogahiy quyidagi asarlarni ham o‘z ona tiliga mahorat bilan tarjima qilgan:

1. Nizomiy “Haft paykar” (Asar nasriy bayon yo‘lida tarjima qilingan);
2. Mirxond “Ravzat us-safo” (Asarinig 2-, 3-jildini forsiydan o‘zbekchaga tarjima qiladi. Bu asarning 1-qismini Munis tarjima qilgan);
3. Muhammad Mahdiy Astrabodiy “Tarixi jahonkushoyi Nodiriy”;
4. Zayniddin Vosifiy “Badoye ul-vaqoye”;
5. Amir Xisrav Dehlaviy “Hasht behisht” (Sakkiz jannat);
6. Badriddin Hiloliy “Shoh va gado”;
7. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muhsiniy” (yaxshi xulqlar);
8. Kaykovus “Qobusnoma” (O‘z o‘g‘li Gilonshohga atab yozgan);
9. Mahmud binni Shayx Ali G‘ijduvoniy “Miftoh ul-tolibin”;
10. Muhammad Muqim Hirotiy “Tabaqoti Akbarshohiy”;
11. Muhammad Yusuf Munshi “Tazkirai Muqimxoniy”;
12. Rizoqulixon Hidoyat “Ravzat us-safoyi Nosiriy”;
13. Muhammad Voris “Zubdat ul-hikoyot”;
14. Muhammad Voris “Sharhi daloyil al-hayrat”;
15. Jomiy “Yusuf va Zulayho”.

Ogahiyning lirik merosi 20 ming misraga yaqin bo‘lib, 1200 misrasi forsiy she’rlardan iborat. Bizgacha shoirning to‘liq she’rlari “Ta’viz ul oshiqin” devoni orqali yetib kelgan. Shoir devoniga nom berish sababini unga yozilgan debochada shunday izohlaydi: “Lojaram, agar ishq va dard ahlining qo‘liga tushsa, ta’viz (tumor) yanglig‘ ixloslari bo‘yunlariga osib, izzat bila asrar erdilar va mutolaa qilib, shavqangez mazmunlari dorusidan ishq marazi (kasallik) bemorliqig‘a nav‘i shifo topar erdilar. Ushbu munosabat bila bu saodatnishon devonni “Ta’viz ul-oshiqin” ismi bila mavsum qildim...”

Ogahiy, dilso‘z nazmingni eshitsa ahli ishq,

Bo‘yniga ta’vizdek aylarlar ash‘oringni band

Shoir “Ta’viz ul-oshiqin” devonini 1866-yilda Saidmuhammadxon va uning valiahdi Muhammad Rahimxonning taklifi bilan tartib bergani haqida ma’lumot beradi. “Ta’viz ul oshiqin” devonining to‘rtta qo‘lyozma nusxasi uchraydi. Ulardan ikkitasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida (inv.№933,74 43), uchinchisi fanlar Akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Leningrad bo‘limi qo‘lyozmalar fondida (inv.№ 1944), to‘ttinchisi esa Leningrad Davlat xalq kutubxonasining qo‘lyozmalar fondida “G‘azaliyot Muhammad Rizo mirob Ogahiy Xevaqi” nomi bilan (inv.№18) saqlanadi . Devonda 22 janrga oid

400ga yaqin g'azallar va kichik janrdagi 500 ta ijod durdonalari o'rin olgan. Ogahiyning lirik merosi 20 ming misrani tashkil etadi. Devon 1905-1909-yillarda toshbosmada chop etilgan va xalq orasida mashhur bo'lgan. Bu ijod namunalari poetik tasvir mahorati, lingvistik xususiyatlari bilan ham qimmatlidir. Shoirning arab va fors tillarini mukammal bilgan va she'rlarida bu tillarning lug'at boyligidan o'z o'rnida unumli foydalanganini ko'ramiz. Bu ham shoirning salohiyatini namoyon etadi. Devonning mavzu doirasi keng bo'lib, shoir chin insoniy tuyg'ularni, ruhiy kechinmalarni, ijtimoiy-falsafiy qarashlarni aks ettiradi. Shoir g'azallarida an'anaviy tarzda ilohiy va dunyoviy ishq asosiy mavzudir. Bundan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik va tabiat tasviri manzaralari ham Ogahiyga xos badiiy poetik mahorat bilan ifoda etilgan. Ayniqsa, "Qish", "Bahor", "Navro'z bo'lsin" kabi g'azallarida shoirning peyzaj ustasi ekanligi ko'rinadi. Shoir bu o'rinlarda tashxis (jonlantirish), tashbeh, sifatlash, istiora kabi badiiy vositalardan unumli foydalanadi. Ogahiy she'rlarida ataylab badiiy tasviriy vositalar qo'llamaydi, balki Ogahiy qalamidan paydo bo'lgan so'zlar she'riy san'at paydo qilaveradi. Bundan tashqari, Ogahiy she'riyatida antroponimlarning tabiatiga ko'ra tarixiy, mifologik hamda xayoliy-to'qima turlari keng qo'llanilgan. Shu bilan birga, shoir ijodida qo'llangan onomastik birliklar, ayniqsa, antroponimlarning tadqiqi shu davrdagi tarixiy voqelik va shart-sharoit hamda milliy an'analarni o'zida aks ettiruvchi manbalarni o'rganish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega. Filologiya fanlari doktori, professor Hamdam Abdullayev Ogahiy ijodiga baho berar ekan, "Ogahiy she'riyatining XIX asr adabiyotimizga bergan yana bir sabog'i bor: bu she'riyatdagi uslubiy ravonlik, xalq an'anasiga yaqinlik, tildagi turfa ifodalilik va bo'yoqdorlik hamda tasviriylikdir" degan fikrlari shoir ijodiga berilgan munosib bahodir. Haqiqatdan ham, shoirning lirik merosini o'rganish orqali badiiy mumtoz adabiyotimiz noyob iste'dod durdonalariga yanada boy ekanligiga amin bo'lamiz. Hozirgacha Ogahiy she'riyatining musiqiy ohanglari elimizda jaranglab, ma'naviyatimizni o'stirishda, yoshlarni go'zal axloqiy sifatlar bilan tarbiyalashda o'z ahamiyatini yo'qotmagan va asrlar davomida shoir ijodini o'rganish, bahramand bo'lish yo'lidagi ilmiy izlanishlar davom etaveradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Ogahiy. "Ta'viz ul-oshiqin" devoni debochasidan. Toshkent, 1960. 11-bet
2. Ogahiy, Asarlar. VI jildlik. 1-jild. G'.G'ulom nashriyoti. Toshkent, 1971, 18-bet
3. Turkiy adabiyot durdonalari. Ogahiy. 9-tom. "O'zbekiston nashriyoti", Toshkent 2022

4. Ogahiy abadiyati. Maqolalar, esselar. "O'zbekiston"
nashriyoti. Toshkent-1999